

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ROSSIYANING BIRINCHI PREZIDENTI B. N. YEL SIN
NOMIDAGI URAL FEDERAL UNIVERSITETI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**INSON FAROVONLIGINI
O'RGANISHDA FANLARARO
YONDASHUV**

xalqaro ilmiy konferensiya materiallari

II QISM

Toshkent – 2023

bilimlarning saviyasi yuqori bo'lishi ta'minlash bolib, ma'lumotlarni qiyosiy va intensiv o'zlashtirish muhiti paydo bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Dehqonova, M. (2023). THE FIRST STAGES OF ENSURING CONTINUITY IN THE ELIMINATION OF SPEECH DEFECTS OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B2), 55-58.
2. Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(1), 101-105.
3. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(10), 389-393.
4. Achilova S.J., Qodirova F.U., DEhqonova M.G., "Logopedik texnologiya" o'quv qo'llanma, 2023. Zebo-print.
5. Muborak, D., & Lobar, S. (2022). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQNING KECH RIVOJLANISHI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(10), 345-349.

TA'LIM KASTERI SHAROITI – AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION OMILI SIFATIDA

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika"
kafedrasi o'qituvchisi
nigoraazizovna1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lism klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlanirishning innovatsion omili sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: autizm sindromi, ta'lism klasteri, mutaxassislar, defektolog, psixolog, ABA terapevt, o'zaro hamkorlik.

Ma'lumki, ta'lism-tarbiya olish jarayoni – bu ma'naviy va intellektual qobiliyatlarni tizimli rivojlanirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan oqilona foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat bo'lgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon ta'lism oluvchining o'zi orqali yoki boshqa shaxsning ya'ni ta'lism beruvchining yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lism olish jarayoni esa turli xil usul va uslublarga tayangan holda kechadi. Ta'lism-tarbiya berishdan ko'zlanadigan maqsad - bu davlat ta'lism standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini ta'lism oluvchiga yetkazishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda mamlakatimizda boshqa sohalar kabi ta'lism-tarbiya sohasida ham klasteri tizimidan foydalilanilmoqda va bu o'zining samarali natijalarini bermoqda.

Klaster - innovatsion tizim sifatida ilm-fan va ishlab chiqarishni uyg'unlashtiruvchi tizim hisoblanadi.

"Klaster" so'zi inglizcha "klaster", "klyster" so'zlaridan olingan bo'lib, tarjimada - nav, tup, turkum ma'nolarini anglatadi. Ilk bor ushbu atama Maykl Yevgeniy Porter tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o'zining klassik ta'rifida: "klaster - bu o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, ularning ma'lum sohalardagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan raqobatdosh,

ammo shu bilan birga qo'shma ish olib boradigan tashkilotlarning geografik jihatdan konsentrangan guruhlari", - deb ta'riflaydi.

Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlar, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm.

Ta'lim klasteri - bu "fan-texnologiya-biznes" innovatsion zanjiridagi ta'lim-tarbiya berish, tengdoshlarini o'qitish va o'z-o'zini rivojlantirish vositalari tizimi. Ta'lim klasterining asosiy mahsuloti bu – ta'lim xizmatlaridir. Shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim muassasalari ta'lim klasterlarida asosiy rol o'ynaydi.

Ta'lim klasteri o'quv va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, mutaxassislar tayyorlash tizimida ham tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlarni talab qiladi. Ta'lim-tarbiya rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv-uslubiy adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'naliishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'naliishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'naliishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalardan foydalanish kabi yo'naliishlarda yaqqol ko'rindi.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad sari birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda shaxsiy manfaatdorlik asosida ish olib boradi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi.

Ta'lim klasterining elementlari - bu muassasa yoki uning alohida tuzilmalari vazifasini hal qilishda ishtirok etadigan tuzilmalarning qo'shilmasi bo'lishi mumkin. Ta'lim klasteri ishtirokchilarining tarkibini (uning elementlarini) vaziyatga qarab to'ldirib, kengaytirib borish mumkin.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, klaster tizimi bu bir-biriga bog'liq bo'lgan elementlarni ma'lum bir maqsad uchun birqalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilishga birlashtirilgan turli sohalardagi faoliyat yurituvchi subyektlar majmuidir.

Autizm spektrida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlari ham ta'lim klasteri sharoitida olib borilishi o'zining samarali natijasini beradi. Autizm sindromli bola bilan korreksion-tuzatish ishlari bir guruh mutaxassislar psixiatr, nevrolog, psixolog, neyropsixolog, defektolog, nutq terapevti, musiqa xodimi va, albatta, ota-onalar tomonidan kompleks tarzda amalga oshirilsa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu esa mutaxassislar ta'lim klasterining elementlari tibbiyot muassasasi, ta'lim tashkiloti, oila sifatida faoliyat yuritadi. Mutaxassislar tomonidan shakllantirilgan bolaning ko'nikmalari ota-onalarning uyda bola bilan kundalik tizimli ishlarida mustahkamlanishi kerak. Shu bilan birga ta'lim klasterining yana bir ishtirokchisi sifatida Chirchiq davlat pedagogika universitetining Maxsus pedagogika kafedrasini ko'rsatish mumkin. Universitetda magistr talabalariga Autizm sindromli bolalar bilan ishslash metodikasi moduli fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. Bo'lajak mutaxassislarni hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan bo'lgan autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarni aniqlash, tashxislash, ular bilan olib boriladigan

korreksion tuzatish ish tizimi bilan tanishtirib va shu bilan birgalikda o'quv seminarlar tashkil etilib, amaliyotchi defektologlar, tarbiyachilar, psixologlar va otonalarni ushbu muammoning keng qamrovli mazmuni hamda ilm-fanda erishilgan oxirgi natijalar ham tanishtirilib borilmoqda.

Autizm spektrida kamchiligi bo'lgan bolalarga har tomonlama yordam ko'rsatishda, tegishli tuzatish sharoitlarini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish tavsiya etiladi:

korreksion ishga kompleks psixologik va tibbiy-ijtimoiy yondoshuvni amalga oshirish;

tuzatish jarayonining integral yo'nalishi, ko'rsatilayotgan yordamning individual xususiyati bilan birgalikda;

barcha yosh bosqichlarida korreksion ishlarning uzluksizligi;

mutaxassislar tomonidan individual yondoshuvni tanlashda autist bolaning manfaatlarini hisobga olish;

ishning guruhli (frontal) shakllariga bosqichma-bosqich o'tish bilan ilk bosqichlarida korreksion ishning individual tabiatи;

autizm sindromli bolaning oilasi bilan muntazam ravishda faol ishslash.

Kompleks korreksion-tuzatish ishlarining maqsadi autizm sindromli bolani unga mos keladigan ta'lim muhitiga va jamiyatga integratsiya qilishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

bolaning rivojlanish darajasini va yanada maqbul korreksion ta'lim yo'nalishini aniqlash maqsadida kompleks diagnostika tekshiruvini o'tkazish;

ASB bolalarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirish;

hissiy-irodaviy sohani rivojlanantirish va korreksiyalash;

me'yorda qabul qilingan ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish;

bolaning tengdoshlar jamoasiga adaptatsiyasiga ko'maklashish;

bolaning yuqori psixik jarayonlarini shakllantirish va rivojlanantirish;

kognitiv faoliyati va nutqni rivojlanantirish;

autizm spektri buzilgan farzandlari bor oilalarga psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish.

Autizm spektrida kamchiligi bor bolalarni tuzatish psixologik va pedagogik jarayonining tuzilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

I. Psixologik va pedagogik diagnostika:

bolaning rivojlanishidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash;

bolaning intellektual rivojlanish darajasini aniqlash;

autizm sindromli bolaning imkoniyatlari va qobiliyatlariga qarab o'quv dasturini aniqlash;

bolani o'qitish va tarbiyalashning individual korreksion dasturini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

II. Psixologik tuzatish:

kattalar bilan muloqot o'rnatish;

noqulaylik, tashvish va qo'rquv kabi umumiy hissiy va emotSIONAL fonni yumshatish;

autizm sindromli bolaning kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlariiga qaratilgan psixik faoliyatni rag'batlantirish;

maqsadli va mazmunli xatti-harakatlarni shakllantirish;

tajovuz, autoagressiya, negativizm, qiziqishlarning qotib qolganligi, stereotiplar kabi salbiy xatti-harakatlarni yengish;

nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va bolani jamiyatda ijtimoiylashtirish.

III. Pedagogik tuzatish:

o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tayyorlash (idroki, motor ko'nikmalari, diqqati, nutqning o'ziga xos rivojlanmaganligini korreksiyalash hamda vizual va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish);

universal ta'lim faoliyatini shakllantirish;

o'qitishning shaxsiy va fan natijalarini shakllantirish;

korreksion va rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish, atrof olam haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

IV. Medikomentoz tuzatish:

qo'llab-quvvatlovchi psixofarmakologik va umumiy mustahkamlovchi terapiya;

maxsus parxezlardan foydalanish.

V. Oila bilan ishslash:

autizm sindromli farzandlari bor oila a'zolarining psixoterapiyasi;

ota-onalarni bolaning psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

uyda autizm sindromli bolani ta'lim-tarbiyalash bo'yicha individual dastur tuzish;

ota-onalarga autizm sindromli bolani tarbiyalash usullarini o'rgatish, uning kun tartibini tashkil etish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish, maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rish.

Oila bilan hamkorlik autizm spektrida kamchiligi bor bola bilan korreksion ishlarida hal qiluvchi omildir. Egallagan bilim va ko'nikmalarni har kuni birlashtirmasdan, uyda vazifalarni ishlab chiqmasdan, barcha oila a'zolarining korreksion ishlariga jalb qilmasdan, psixologik va pedagogik ishlar kam samarali bo'ladi. Oila bilan birga hamkorlikda ishslashni tashkil etish uning mazmuni, tashkil etilishi va metodologiyasini belgilaydigan asosiy qoidalarga asoslanadi:

bolani rivojlantirishning maqsad va vazifalari o'qituvchilar va ota-onalar uchun tushunarli bo'lgan taqdirda erishiladigan birlik hisoblanadi. Oila autist bolalar bilan ishslashning asosiy mazmuni, usullari va uslublari bilan tanishishi kerak;

guruhiba va uyda bola bilan ishslashning tizimli va izchilligi;

har bir bola va oilaga ularning qiziqishlari, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual yondashish.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki uyda ta'lim-tarbiya olayotgan ASB bolaning ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyati ota-onalar va barcha mutaxassislarning harakatlarini muvofiqlashtirish imkoniyati bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Autizm spektrida buzilishi bor bolalarni muloqotga o'rgatishga qaratilgan psixologik va pedagogik korreksion ish jarayonida sezilarli ta'sir ko'rsatadigan bir

qator shartlarga rioya qilish kerak. Eng muhim shartlardan biri bu bolaning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olishdir. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizmli bolalarda muloqot qobiliyatining shakllanmaganligi ularning ichki kommunikativ motivatsiyasining yo'qligi yoki yetishmasligi bilan bog'liqdir (Koegel, 1995). Shu munosabat bilan kommunikativ faoliyatni tashqi rag'batlantirish zarurati tug'iladi. Bunga turli xil obyektlarni, turli xil faoliyat turlarini, shuningdek, bola uchun qiziqarli bo'lgan suhbat mavzularini psixologik va pedagogik tuzatish jarayoniga kiritish orqali erishiladi. Ya'ni autist bolani faoliyatga undovchi motivatsiyalar hamda bolalarning qiziqish doirasidagi stimullarni aniqlab, ulardan korreksion ish davomida keng foydalanish zarur. Masalan, bolaga so'rovlarni ifoda etish qobiliyatini o'rgatish, uning sevimli yeguliklari, o'yinchoqlaridan foydalanish kerak; savollarga javob berish va rasmlardagi tasvirlarga sharh berish qobiliyatini shakllantirish bolaning sevimli kitobidan foydalanish kerak bo'ladi. Bunday holda, u katta istak bilan javob beradi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Muloqotni qo'llab-quvvatlash qobiliyatini oshirishda, bola uchun qiziqarli suhbat mavzularidan foydalanish yaxshiroqdir. Agar mavzuni tanlash bolaga yuklangan bo'lsa, o'zaro ta'sirdan voz kechish mumkin...

Korreksion ishlar jarayonida maslahatlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolalarning aksariyati maslahatlardan juda samarali foydalanishlari mumkin, chunki ular exolalik nutqi bilan ajralib turadi hamda boshqa insonlarning so'zlarini avtomatik ravishda takrorlashi, ularning ma'nosini ko'pincha tushunmasligi mumkin. Masalan, kattalar bolalar bilan salomlashishadi: "Salom Oybek!" va bola esa kattalarni ism bilan nomlash o'rniiga "Salom Oybek!" deb javob beradi. Yoki kattalar: "Oybek, to'pni olib kel!" desa bola avtomatik ravishda "Oybek, to'pni olib kel!" deb takrorlaydi, lekin u so'raganini qilmaydi.

Exolalik autist bolada nutq muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ishlatilishi kerak. Buning uchun bolaga nutq so'zlash namunalarini namoyish qilish va ularni exolaliya bilan takrorlashga undash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'minova L.R. "Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari". Uslubiy qo'llanma. Toshkent "Spectrum Media Group" 2015-yil.
2. Подольская О.А., Яковлева И.В. "Ранний детский аутизм: особенности и коррекция". Учебное пособие. Елец – 2020
3. Лебединская К.С., Никольская О.С. "Диагностика раннего детского аутизма". М.: Просвещение, 1991.
4. Никольская О.С. "Дефектологические проблемы раннего детского аутизма". Дефектология. 1994. № 2. С.

Тўйчиева Гулҳаё. Развитие индивидуальности студента с помощью методики коучинга	126
Усарова Н.Б. Образование на протяжении всей жизни как усовершенствованная форма непрерывного образования	128
Эрназарова Гулнора, Холматова Роза. Аутопедагогическая компетентность	130
Эрназарова Гулнора. Формирование акмеологического мышления у современного специалиста	133
Юлдашева Инобат. Характеристика педагогических конфликтов	136
V SHO'BA. MUSTAQIL-TA'LIM KLASTERI INSON FAROVONLIGINING ASOSIY OMILI SIFATIDA	
Abdullayeva G.S. Nogironligi bo'lgan talabalarda inklyuziv ta'lism kompetentligini shakllantirishda axborot kompyuter texnologiyalarning o'rni	140
Abduraximov S.D. 13-14 yoshli o'smirlarda deviant xulq-atvorni harakatli o'yinlar yordamida tashxislash	144
Asadullayeva Mastura, Ismailova Sevdoxon. Inklyuziv sinf musiqa darslarining o'quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati	147
Dehqonova Muborakxon. Individual ta'lism modeli	152
Egamberdiyeva Nigora. Ta'lism klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida	154
Z. K. Ismailova. D.Mustafaeva. Components of the gradual implementation of student media activities in the educational process	159
Ibadullayeva Sh.N. Yetuk mutahassis bo'lib yetishishda pedagogik amaliyotning o'rni	176
Ishmatova O. S. "Faol harakat-xalq salomatligi garovi" ijtimoiy loyihasida pedagogik ta'lism innovatsion klaster	179
Ibroximov F.A. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lism klasteri asosida ijodiy yondashish	183
Ibadullayeva Sh.N., F.A.Safarova. Talabalarni kasbiy amaliyotga erta va maqsadli tayyorlash	186
Jabborova Onaxon, Saparbayeva Dinora. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'lism klasteri metodikasi	189
Jabborova Onaxon. Boshlang'ich ta'limdada o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish mexanizmlari	191
Kobilova Shaxnoza. Inklyuziv ta'limga rivojlanish tendensiyalarini muvofiqlashtirish masalalari	194
Kobilova Shaxnoza, Abduraximova Durdon, Boboxonova Madina. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar faolligini ta'minlashda inklyuziv ta'limga o'rni	196